



IQTISODIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI MASALALARNI YECHISH USULLARI.

Asimov Alijon

F.-m.f.n., dotsent. Farg'ona davlat universiteti

Yo'lchiyeva Shaxloxon Obidjon qizi

FarDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Matematika shunday fanki, uni har bir soxa bilan uzviy aloqasi mavjud. Shuning uchun ham iqtisodiyot tarmoqlari bilan aloqasini jamiyatimiz taraqqiyotida tutgan o'рни beqiyos. Buni o'quvchilarga o'rgatish tahliliy fikrlashni o'stirishda va oilada tejamkorlikni shakllantirishda o'zining yuqori o'rnini topib bormoqda.

Kalit so'zlar: taxliliy fikrlash, talqin, taxlil, mantiq va dalil asosida fikrlash, baholash, tushuntirish, tekshirish, tejamkorlik, kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, yer osti va yer usti boyliklar, mantiqiy tafakkur.

Tahliliy fikrlash mustaqil fikrlashdir. Har bir kishining fikr yuritishi individual xarakterga ega bo'lib, boshqalarnikidan ajralib turadi. Axborot esa tahliliy fikrlashning boshlang'ich nuqtasidir. G'arb olimlari tomonidan chop etilgan uslubiy adabiyotlarda bilim berish uslubiga ta'sir etuvchi parametrlar sifatida quyidagi xususiyatlar kiritilgan:

har bir talabaning individual xususiyatlari;

axborotni qayta ishlash va tahlil qilish qobiliyati;

talabalarni bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatishi, hamkorlik qilishi.

Biz bu bilim nazariyalaridan shuni bilishimiz mumkinki, bolalarning har bir misol va masalalarni to'g'ri tahlil qilishi bu ularni yechishda 70% to'g'ri natija chiqara olishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tahliliy fikrlashga aloqador tafakkurning oltita quroli mavjud. Ular quyidagilar:

1-Talqin

Talqin deganda sizga taqdim etilgan axborotni to'g'ri tushunib, uni boshqalarga to'g'ri yetkazib bera olish qobiliyati tushuniladi. Bunda o'quvchilar berilgan misol yoki masala shartini qanday ma'no anglatganini tushunib sheriklari bilan o'rtoqlasha olishi talab etiladi.

2- Tahlil

Tahlil deb turli qismlardan iborat axborotlarni jamlab, ularning xulosasini tushunishga aytiladi. . Bunda o'quvchilar berilgan misol yoki masala shartidagi raqamlar va sonli ma'lumotlarni o'z o'rniga to'g'ri joylashtirishlari talab etiladi.

3- Mantiq va dalil asosida fikrlash

Mantiqiy va dalil asosida fikrlash mavjud ma'lumotlar asosida to'g'ri xulosa yoki natijaga erishish uchun masala yoki misolni qulay usulini tanlay olish mahorati





tushuniladi. Ya'ni biror masalani yechish davomida so'ralayotgan ma'lumotni to'g'ri topish uchun undan oldin topilishi zarur bo'lgan amalni o'rnida qo'llash va natijaga erishish talab etiladi. Buni bir masala yordamida ko'rib chiqamiz:

“4-masala

Xonada 14 nafar o'g'il bola va 16 nafar qiz bola bor xonadan 22 nafar bola chiqib ketgach, o'g'il va qiz bolalar soni tenglashdi. Xonadan nechta o'g'il bola chiqib ketgan?”⁵⁴

Berilgan: O'g'il bolalar 14 nafar

Qiz bolalar 16 nafar

Chiqib ketdi 22 nafar

Topish kerak: xonadan chiqib ketgan o'g'il bolalar soni.

Ushbu masalani to'g'ri yechish uchu avvalo xonadagi jami bolalar sonini topib olishimiz kerak. So'ng barcha bolalr sonidan chiqib ketgan o'quvchilar sonini ayirib xonada qolgan bolalar sonini topib olamiz. Shartga ko'ra xonada o'g'il bolalar va qiz bollalar soni teng deyilgan ma'lumotga asoslangan holda xonada qolgan o'g'il bollalar sonini topishimiz va jami o'g'il bolalar sonidan xonadagi bolalar sonini ayirib chiqib ketgan bolalar sonini topishimiz mumkin. Bu yerda xonadagi o'gil bolalar sonini qizlar soni bilan tengligini masala shartidan tushunish va uni topish orqali masalaga to'g'ri yechim topa olish mantiqiy dalillar asosida fikrlash uchun misol bo'la oladi.

4- Baholash

Baholash davomida o'quvchilar ma'lumotlarni to'g'ri qo'llanilayotganini ularni bir biri bilan adashtirmagan holda o'z o'rnida ishlatilayotganligiga ishonishlari qarorining qanchalik xolisligini to'g'ri baholay olishingiz kerak.

5- Tushuntirish

Bu ko'proq o'qituvchilar uchun zarur bo'lgan va ulardan talab qilinadigan asosiy qonunlardan biridir. Masala, misollardagi ma'lumotlarni nafaqat yetkazishni, balki qo'shimcha ma'lumotlar orqali tushuntirishni bilish ham muhim. Chunki sizdan axborotni qabul qilayotgan odamda tug'iladigan qo'shimcha savollarga ham javob bera olishingiz kerak. Biror masalani o'rganganda uni boshqalarga batafsil tushuntirib bera oladigan darajada bilishingiz kerak. Demak, har doim masala misollar haqidagi mavzuni to'liq tushuntirib berishga tayyor turishingiz kerak.

6- Tekshirish

Bu jarayon davomida albatta ishlangan misol yoki masaladan olingan natijaning qay darajada to'g'ri ekanligini tekshirib o'rganib chiqish talab etiladi. Agar masalani yechish davomida biror xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, masalani yana qanday usulda yechish mumkin? Qaysi o'rinlarda xatoliklarga yo'l qo'yilgan? Kabi savollarga javob topishga harakat qilishi zarur.

“Iqtisodiy tamoyillarni o'zlashtirish ("harakat bo'yicha qo'llanma" sifatida) va malakali qarorlar qabul qilishni o'rganish uchun iqtisodiy nazariya asoslariga ega;

⁵⁴ 3-sinf “Matematika” darslik O'rinboyeva.L,Ismaïlov .Sh,Yusupov.X,Ruzikulova N,Raxmonov U,Haqberdiyeva.ShYusupova N,Baymanova A.,Toshkent 2022.,





tevarak-atrofdagi olamni, zamonaviy davrning iqtisodiy voqealiklarini aniq tushunadi, "bilib turish" uchun bilimlarni muntazam to'ldirib boradi; iqtisodiy tamoyillarga asoslanib, o'zining iqtisodiy xulq-atvori strategiyasini quradi; iqtisodiy xulq-atvorning asosiy modellarini va iqtisodiy rollarni o'zlashtiradi; zamonaviy iqtisodiy tafakkurga ega; mustaqil qaror qabul qilish malakalarini oshiradi; iqtisodiy tilda gapiradi, bu sizning fikringizni aniq ifodalash imkonini beradi; ishbilarmonlik, og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalariga ega; iqtisodiy madaniyatning asosiy elementlariga egalik qiladi: faollik, xulq-atvor, kommunikativ, qiymat; o'zining va o'zgalarning mulkini, o'zining va o'zgalarning mehnatini hurmat qiladi, iqtisodiy yutuqlari bilan faxrlanadi."⁵⁵

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, men boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda e'tibor berilishi lozim bolgan bir nechta yo'nalishlarni ajratib o'tdim.

1. Pul- bu nima?
2. Narxi qancha?
3. Oilaning daromadlari va xarajatlari.
4. Biz do'konga boramiz.
5. Maktabda pul sarflashimiz.
6. Maktab oshxonasida.

Tayyorgarlik - 1 sinfda rolli o'yinlarga katta o'rin berildi: "Do'kon", "Pochta bo'limi", va boshqalar. Oilaning daromadlari va xarajatlari darsida o'quvchilar 4 guruhga bo'lingan - o'rmon oilalari: "Tipratikanlar", "Quyong'aylar", "Bo'rsiqlar", "Bo'rilar" ga bo'lib olamiz. Ularga o'z oilalariga mos ozuqa maxsulotlaridan tuzilgan masalalarni tarqatamiz va yechishni, oilalarida qancha sarf xarajat ketishini o'rgatamiz.

Masalalar:

1. Tipratikanlar oilasi uchun. Tipratikan ota har yakshanba kuni oilasiga olma va nok sotib oladi. U 4 ta bolasi, o'zi va bolalarining onasi uchun har birlariga 12 tadan olma va 7 tadan nok sotib oladi. Agar har bir olmaning narxi 50 so'm va har bir nok uchun 40 so'mdan to'lasa, tipratikan bir haftada oilasi uchun qancha xarajat qiladi? 2 haftadachi?

Berilgan: 6 ta tipratikan

Har biriga 12 tadan olma

Har biriga 7 tadan nok

Bitta olma 50 so'm

Bitta nok 40 so'm

Yechish: 1) $6 \cdot 12 = 72$ ta olma

2) $6 \cdot 7 = 42$ ta nok

3) $72 \cdot 50 = 3600$ so'm olma

⁵⁵ Read more at: <https://minikar.ru/uz/lyubov-i-otnosheniya/fundamentalnye-issledovaniya-diplomnaya-rabota-psihologo-pedagogicheskie-usloviya-ekonomicheskogo-voosp/>





4) $42 \cdot 40 = 1680$ so'm nok

5) $3600 + 1680 = 5280$ so'm

Javob: bir haftada 5280 so'mlik xarajat qiladi

Endi 2 hafta davomida qancha xarajat qilishini toppish uchun chiqqan natijani 2 ga ko'paytirishimiz lozim. Shunda 2 haftalik xarajati kelib chiqadi.

Yechish: 1) $5280 \cdot 2 = 10560$ so'm.

Javob: 10560 so'm.

2. Quyionlar oilasi uchun. Quyion ona har yakshanba kuni oilasiga sabzi, karam va lavlagi sotib oladi. U 5 ta bolasi, o'zi va bolalarining buvasi uchun har birlariga 7 tadan sabzi, 8 tadan karam va 9 tadan lavlagi sotib oladi. Agar har bir sabzining narxi 50 so'm va har bir karam uchun 40 so'mdan, har bir lavlagi uchun 30 so'mdan to'lasa, quyionchalar bir haftada oilasi uchun qancha xarajat qiladi? 2 haftadachi?

Berilgan: jami quyionlar soni 7 ta

Har biriga 7 tadan sabzi

Har biriga 8 tadan karam

Har biriga 9 tadan lavlagi

Bitta sabzi 50 so'm

Bitta karam 40 so'm

Bitta lavlagi 30 so'm

Yechish: 1) $7 \cdot 7 = 49$ ta sabzi

2) $7 \cdot 8 = 56$ ta karam

3) $7 \cdot 9 = 63$ ta lavlagi

4) $49 \cdot 50 = 2450$ so'm

5) $56 \cdot 40 = 2240$ so'm

6) $63 \cdot 30 = 1890$ so'm

7) $2450 + 2240 + 1890 = 6580$ so'm

Javob: bir haftada 6580 so'm xarajat qilishadi.

1 haftada qancha xarajat qilganini topish uchun bir haftalik harajetni 2 ga ko'paytiramiz.

Yechish: 1) $6580 \cdot 2 = 13160$ so'm

Javob 13160 so'm xarajat qiladi 2 haftada.

Tejamkorlik— doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallaydi. Tejamkorlik hislatlarini bolalarda shakllantirish orqali jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining jamiyatdagi insonlar oldidagi fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, va insoniy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantiradi. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muayyan darajasida barcha resurslardan tejamli foydalanish bo'yicha iqtisodiy munosabat bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Darhaqiqat, insonlar oxirgi paytlarda ko'p narsalarni isrof qilib





tashlamoqda. Shuning uchun ham yerdagi boyliklarimizning deyarli uchdan bir qismini yoqotib bo'ldik. Shunday ekan, imkoniyatlarimiz bor bo'lganda, yerni sayyoramizni asrashimiz uni avaylashimiz darkor. Bu narsalarni esa bolalarimizning ongiga yoshligidanoq singdirib borishimiz, ularni har bir narsa bir kun kelib tugashiga, ularni hamma vaqt asrab avaylash zarurligiga o'rgatib borishimiz kerak. Buning uchun avvalo biz kattalarning o'zi ularga na'muna ko'zgu bo'lishimiz, har bir ne'matlarni avaylashimiz talab etiladi. Chunki yer – olam borki insoniyat, jonivor va o'simliklar bor. Olimlarning ta'kidlashicha, agarda insoniyat isrof qilishni ertaroq to'xtatmasa sayyoramiz ko'p talofatlarga uchrab, yo'q bo'lib ketar ekan. Agarda biz sayyoramizdagi yer usti va yer osti boyliklaridan to'g'ri yo'lda, isrof qilmagan holda foydalansak bizning ma'naviy va moddiy boyliklarimiz ko'p yillarga yetib, keyingi avlodga ham ortib qoladi.

Tejamkorlik hislatlarini shakllantirishning matematika fani bilan uzviy bog'liqlik tomonlarini quyidagi masala orqali tushunib olishimiz mumkin.

2- masala

Do'konda 1 dona tuxumning narxi 10 so'm. Agar xaridorlar do'kondan 10 tadan ko'p tuxum sotib olishsa har bir olingan qo'shimcha 5 ta tuxum uchun 2 tadan tuxum qo'shib beriladi. Nigoraning oilasida 8 kishi yashaydi va u har hafta 20 ta tuxum xarid qiladi. Nigora olgan tuxumlari uchun yana qancha qo'shimcha tuxum oladi va u oilasi uchun haftada necha so'm tejab qoladi?

Ushbu masalaning sharti bolalarni mantiqan o'ylashga majbur qiladi va yechimini topish natijasida oila budjetiga qanday yo'llar bilan foyda keltirish mumkinligi o'rgatiladi. Bu esa o'z navbatida bolalarni kelajak xayotga ham tayyorlash uchun asos vazifasini bajaradi.

Bunday mazmundagi masalalarni darsliklarga ko'plab kiritish bolalarda iqtisodiy tarbiyaning yanada o'sishiga va tejamkorlik xislatlarini shakllanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.M.E.Jumayev, Z.G'.Tadjiyeva. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent 2005.

2. N.U.Bikbayeva. R.I.Sidelnikova. G.A.Adambekova. 'Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi'

3. M. Mirzaahmedov "Matematika va iqtisodiyot" Boshlang'ich ta'lim 2005 yil 4-son

4.A.F. Kichik maktab o'quvchilarini iqtisodiy tarbiyalash. - M.: Pedagogika, 1982. - S. 23.

5. Zemlyanskaya E.N. Kichik maktab o'quvchilarining iqtisodiy bilimlarini baholash mezonlari va konkretlashtiruvchi ko'rsatkichlari. - M., 2000 yil.





6. Firdaus, F., Kailani, I., Bakar, M. N. B., & Bakry, B. (2015). Matematikani o'rganishda talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish. Journal of Education and Learning jurnali.

7. A.Asimov, Sh.Jo'rayev, "Boshlang'ich ta'limda iqtisodiy tarbiya muammolari", Ilmiy maqolalar to'plami, Farg'ona 2011 – yil;

8. A. Adahamov, M. Jalilov "Boshlang'ich sinfda iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish" FarDU habarlari 2016 – yil, 2 – soni.

9. A. Asimov, Sh. Solijonova "Iqtisodiy tarbiya berish" Respublika Ilmiy – amaliy anjumani, Farg'ona 2018 – yil 12 – oktyabr.

10. D. Qurbonov "Iqtisodiyotda tejamkorlik" Respublika Ilmiy – amaliy anjumani, Farg'ona 2013 – yil may oyi.

11.Asimov.A. (2019). APPLICATION OF MUCH MUTUAL INSTRUCTIONS FOR PREPARING TEACHERS TO TEST DISCIPLINES. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(4),

12.Asimov, A. (2019). USING PROBLEMS AND TRAINING STUDENTS TO PROBLEM. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(8), 348352.

13. SH.Yo'lchiyeva."Boshlang'ich sinf matematika darslarida iqtisodiy tushinchalarni shakllantirish asoslari" LONDON CONFERENCE PROCEEDINGS 2021 maqolasidan.

14. WWW.Ziyo.Net.uz web sayti.

